XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 23 - fevral VI-96-15-7-0-K/24 Samarqand viloyati hokimligi

Jomboy tumanidagi ayrim aholi punktlarini nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4 va 9-moddalariga muvofiq Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 13-dekabrdagi yig‘ilish bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 9-yanvardagi (03/08-174-son) ekspertiza xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq, to‘qson oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

Jomboy tumanidagi aholi punktlarining nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (T.Mahmudov), viloyat Statistika boshqarmasi (Sh.Abdiyev), Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (M.Quvondiqov), Jomboy tumani hokimligi (Q.Sobirov) mazkur qaror ilovasida ko‘rsatilgan aholi punktlari nomlarini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (R.Mamatov), Jomboy tumani hokimligi (Q.Sobirov) nomlangan aholi punktlariga aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli yo‘l belgilarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (M.Quvondiqov), Jomboy tumani hokimligi (Q.Sobirov) birgalikda nomlangan aholi punktlariga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Mirzayev), “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat unitar korxonasi (N.Norbekov) ushbu qarorni Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasida rasman e’lon qilinishini va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) mazkur aholi punktlari nomlarni **10 kun muddatda** davlat reyestri bazasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Djurakulov) va viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **S.Usmonov**

Xalq deputatlari Samarqand viloyat
Kengashining
2024-yil 23-fevraldagi
VI-96-15-7-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Jomboy tumanidagi nom berilayotgan aholi punktlari

T/r	**Geografik obyektning joylashgan o‘rni (MFY)**	**Nom berilayotgan aholi punkti**	**Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi**
1.	“Dehqonobod” MFY	Jobi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	“Kattaqishloq” MFY	Katta Shirinkent	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq